




Andijon viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2020- yil yanvar-iyun)



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020- yilning yanvar-iyun oylarida viloyat korxonalari tomonidan 17 115,2 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2019- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi* 105,6 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi (97,7 %) ni tashkil etdi.



Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish


Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi pasayishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida - 44,3 % ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilishda - 12,7 % ga pasayish kuzatildi.

Shuningdek, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning - 8,5 % ga hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning - 5,0 % ga o'sishi kuzatildi.

*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2020- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 64,2 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,4 % ini tashkil etdi.



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

O'tgan yilning shu davriga nisbatan neft qazib olish - 81,7 % ga pasaygan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan tabiiy gaz qazib olish – 3,4 martaga hamda gaz kondensati qazib olish esa – 4,7 martaga oshgan.




Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-iyun	2020- yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Neft, <i>ming t.</i>	30,1	5,5	-24,6
Tabiiy gaz, <i>mln. kub.m.</i>	21,6	73,4	51,8
Gaz kondensati, <i>ming t.</i>	0,1	0,7	0,6



Ishlab chiqaradigan sanoat

2020- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 16 732,1 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 97,7 % ini tashkil etdi.





Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati



2020- yilning yanvar-iyun oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 286,0 ming litr uzum vinosi (2019-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 0,9 % ga kamaygan), 25.5 ming tonna, kalava ip (120,2 %), 79,1 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (118,4 %), 416,5 ming. litr aroq mahsulotlari (115,8 %) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-iyun	2020- yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Yengil avtomobillar, <i>dona</i>	93125	113290	20165
Bug'doy uni, tonna	66817	79131	12314
Paxtadan yigirilgan ip, tonna	26069,3	31344,4	5275,1
Aroq, ming. litr	359,8	416,5	56,7
Uzum vinosi, ming. litr	288,5	286,0	-2,5
Etil spirti, ming. litr	5555	6180	625




Andijon viloyatida yengil avtomobillar ishlab chiqarish sanoati (dona)




«Cobalt»



«Nexia T-250»




«Gentra»



«Spark»



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 274,3 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (1,6 % ini) tashkil etdi.

2020- yilning yanvar-iyun oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 105,0 % ga oshganligi kuzatildi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-iyun	2020- yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Elektr energiya, mln.kVt/s	207,5	153	-54,5
Iссиqlik energiyasi, ming gkal	18,4	23,6	5,2



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 44,6 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,3 % ini) tashkil etdi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-iyun	2020- yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Qayta foydalanishga yaroqsiz boshqa xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	8,9	9,6	0,7
Suvga ishlov berish va suv bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	20,6	22,2	1,6

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish 7,6 % ga, hamda xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar 7,2 % ga oshganlik kuzatildi.



Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 12842,6 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2019- yilning mos davriga nisbatan 9,0 % ga o'sgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 75,0 % ni tashkil etdi.



2019- yilning mos davriga nisbatan solishtirganda 2020- yil yanvar-iyun oylarida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida nooziq-ovqat mahsulotlarning ulushi 90,5 % dan 91,3 % gacha oshganligi qayd etildi.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 0,1 % (2019- yil yanvar-iyun oylarida ham 0,1 %)ni tashkil etgan edi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Asaka tumaniga to'g'ri kelib, 78,2 % ni, shuningdek, Andijon shahri 4,9 % ni, Xo'jaobod tumani 1,9 % ni, Oltinko'l tumani 1,9 % ni hamda Shahrixon tumani 1,8 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (109,0 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Izboskan (113,7 %), Oltinko'l (111,6 %), Asaka (111,3 %) hamda Bo'ston tumanlarida (110,8 %)ni qayd etdi.



**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**
(2020- yilning yanvar-iyun oylarida)

	Mrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, % da
Andijon viloyat bo'yicha:	12842,6	100	109,0
Andijon shahar	629,0	4,9	101,6
Xonobod shahar	44,0	0,4	100,8
tumanlar:			
Andijon	237,4	1,9	101,2
Asaka	10048,0	78,2	111,3
Baliqchi	117,9	0,9	107,3
Buloqbo'shi	154,0	1,2	101,4
Bo'ston	105,2	0,8	110,8
Jalaquduq	159,3	1,2	91,8
Izboskan	121,4	0,9	113,7
Ulug'nor	69,5	0,5	105,7
Marhamat	139,1	1,1	104,4
Oltinko'l	236,8	1,9	111,6
Paxtaobod	139,5	1,1	101,3
Xo'jaobod	250,2	1,9	91,8
Shahrixon	229,8	1,8	94,7
Qo'rgontepa	161,3	1,3	101,3



Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 2866,2 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Horijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 16,7 % ni tashkil etdi.



Hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari

	2020- yil yanvar-iyun mlrd. so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Andijon viloyat bo'yicha:	17115,2	105,6
Andijon shahar	2674,5	111,4
Xonobod shahar	613,8	118,2
tumanlar:		
Andijon	460,3	101,7
Asaka	10313,5	108,7
Baliqchi	286,2	102,8
Buloqbooshi	168,0	101,5
Bo'ston	152,1	106,0
Jalaquduq	244,4	105,0
Izboskan	358,9	156,6
Ulug'nor	130,6	100,6

	2020- yil yanvar-iyun mlrd. so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Marhamat	214,5	115,9
Oltinko'l	316,2	139,3
Paxtaobod	201,8	102,1
Xo'jaobod	292,2	106,3
Shahrixon	328,3	100,8
Qo'rgontepa	359,9	238,8


Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha yuqori texnologiyali loyihalarni amalga oshirish natijasida, viloyatda 2020-yilning yanvar-iyun oylarida jami 17115,2 mlrd. so'mga teng sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Shahar va tumanlar kesimida yuqori hajm Asaka tumanida 10313,5 mlrd. so'mni, Andijon shahrida 2674,5 mlrd. so'mni, Xonobod shahrida 613,8 mlrd. so'mni, Andijon tumanida esa 460,3 mlrd. so'mni tashkil etdi

Viloyatda sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksining o'sishiga, Qo'rg'ontepa (238,8 %), Izboskan (156,6 %), Oltinko'l tumanlarida (139,3 %) hamda Xonobod shahar (118,2 %) va Andijon shaharlarida (111,4 %)ga sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksi oshganligi bilan izohlashimiz mumkin.




**Andijon viloyati tumanlar kesimida ishlab
chiqarish fizik hajm indeksi, iste'mol mahsulotlari
ishlab chiqarishning o'sish sur'ati % da**

**Sanoat ishlab chiqarish
fizik hajm indeksi, % da**




**Iste'mol mahsulotlari ishlab
chiqarishda o'sish sur'ati, % da**



Iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish Izboskan (2019- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 113,7 %), Oltinko'l (111,6 %), Asaka (111,3 %), Bo'ston (110,8 %), Baliqchi (107,3%), Ulug'nor (105,7%), Marhamat (104,4%), Buloqboshi (101,4%), Pahtaobod (101,3%), Qo'rg'ontepa tumanlarida (101,3%) ga sezilarli darajada oshdi.



Andijon viloyati tumanlar kesimida jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da



Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulushi Asaka tumani (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 60,2 %), Andijon shahar (15,6 %), Honobod shahar (3,6 %), Andijon (2,7 %), hamda Qo'rgontepa (2,1 %) tuman-lari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Ulug'nor (0,8 %) tumaniga to'g'ri kelmoqda.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Asaka (31 520,4 ming so'm), Xonobod sh (14 408,7 ming so'm), Andijon shahrida (6 026,5 ming so'm), o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (5 449,8 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 4 089,3 ming so'm bo'lgan holda, Asaka tumanida – 30 709,0 ming so'mni, Xo'jaobod tumanida – 2 276,8 ming so'mni, Andijon shahar – 1 417,4 ming so'mni, Bo'ston tumanida 1 461,3 ming so'mni, Oltinko'l tumanida 1 334,9 ming so'mni tashkil etdi.




**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari
va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish**
(2020- yil yanvar-iyun oylarida, ming so'm)

	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
Andijon viloyat:	5449,8	4089,3
Andijon sh	6026,5	1417,4
Xonobod sh	14408,7	1033,0
tumanlar:		
Andijon	1750,1	902,8
Asaka	31520,4	30709,0
Baliqchi	1430,2	589,2
Buloqboshi	1180,0	1081,7
Bo'ston	2112,9	1461,3
Jalaquduq	1318,4	859,1
Izboskan	1511,7	511,3
Ulug'nor	2191,5	1166,8
Marhamat	1241,8	805,6
Oltinko'l	1782,2	1334,9
Pahtaobod	1048,2	724,7
Xo'jaobod	2658,5	2276,8
Shahrixon	1098,5	768,9
Qo'rg'ontepa	1669,5	748,1



Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi (2020- yil yanvar-iyun oylarida, % da)

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 3134,8 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 18,3 % ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Bulqoboshi tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Izboskan tumanida (91,4 %), Shahrixon (82,9 %), Xo'jaobod (75,1 %), Jalaquduq (69,4 %), Pahtaobod (66,7 %) tumanlarida kuzatildi.

Viloyatimiz hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko'rsatdiki, Asaka (2,0 %), Honobod sh (10,2 %), Andijon sh (20,3 %), hamda Qo'rg'ontepa tumanida (36,7 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.



Viloyatda faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari
(2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 7758 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 2962 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 38,2 %) Andijon shahriga, 835 tasi (10,8 %) Asaka tumaniga, 605 tasi (7,8 %) Andijon tumaniga to'g'ri kelmoqda.

Yangi tashkil etilgan korxonalar soni, birlikda.		Faoliyat yuritayotgan korxonalar soni, birlikda.
23	Ulug'nor	77
28	Honobod sh	139
80	Bo'ston	158
62	Pahtaobod	182
50	Buloqboshi	208
48	Marhamat	216
63	Baliqchi	238
85	Jalaquduq	255
64	Izboskan	259
86	Qo'rgontepa	311
74	Oltinko'l	342
85	Xo'jaobod	399
103	Shahrixon	572
93	Andijon	605
122	Asaka	835
541	Andijon sh	2 962


2020- yil yanvar-iyun oyida viloyatda 1607 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 541 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 33,7 %) Andijon shahrida, 122 tasi (7,6 %) Asaka tumanida, 103 tasi (6,4 %) Shahrixon tumanida, 86 tasi (5,4 %) Qo'rg'ontepa tumanida, 80 tasi (5,0 %) Bo'ston tumanida hamda 85 tasi (5,3 %) Jalaquduq tumaniga to'g'ri keldi.




Shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari (2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra)

Bugungi kunda shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan eng ko'p sanoat korxonalari joylashgan hududlar 8 taligida Andijon shahrida (2 962 ta), Asaka (835 ta), Andijon (605 ta), Shahrixon (572 ta), Xo'jaobod (399 ta), Oltinko'l (342 ta), Qo'rg'ontepa (311 ta), Izboskan tumanlari (259 ta) ni qayd etdi.

Viloyat miqyosida eng ko'p sanoat ishlab chiqarish korxonalari joylashgan shahar va tumanlar 8 taligi
(2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra)



Viloyat miqyosida eng kam sanoat ishlab chiqarish korxonalari joylashgan shahar va tumanlar
(2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra)



2020- yilning 1-iyun holatiga ko'ra viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan eng kam sanoat korxonalari joylashgan hududlar 8 taligiga esa Jalaquduq (255 ta), Baliqchi (238ta), Marhamat (216 ta), Buloqboshi (208 ta), Pahtaobod (182 ta), Bo'ston (158 ta), Ulug'nor tumanlarida (77 ta) hamda Xonobod shahrida (139 ta) qayd etildi.



Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining asosiy ko'rsatkichlari

Tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish hajmlarining o'sishi buyicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishi, korxonalarning ishlab chiqarish faoliyati uchun zarur bo'lgan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni o'sishining va import tovarlari qisqarishining omillaridan biri hisoblanadi.

	2020-yil yanvar-iyun oylarida	2019-yil yanvar-iyun oylarida
Loyihalar soni, birlik	255	64
Korxonalar soni, birlik	140	34
Ishlab chiqarish hajmi, <i>mlrd.so'm</i>	422,8	3073,0
Export qilingan mahalliyashtirilgan mahsulot hajmi, <i>ming AQSH dollari</i>	0,8	44,3
Yaratilgan yangi ish o'rinlari, <i>birlik</i>	262	97

Sanoat statistikasi
bo'limi

Tel.: (74) 228-30-42